

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI O'SIMLIKLAR HAYOTINI O'RGANISH ORQALI TABIATNI E'ZOZLASH RUHIDA TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI

A.Yu.Kuchkinov,
O'zPFITI stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchisi

Atrof-muhitni asrash muammosi keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda ekologiya faning ilmiy nazariy asoslarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularni tabiatga g'amhurlik ruhida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammolardan biridir.

O'qituvchi ekologik ta'lim-tarbiyaga oid olib borayotgan har bir mashg'ulotni ma'lum bir mavzuga bag'ishlab o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ekologik ongini o'stirish, o'zligini anglash, tabiiy boyliklar, hayvonot dunyosi va nabotot olamini asrab-avaylash, e'zozlash ruhida tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchisiga alohida mas'uliyat yuklaydi.

O'qituvchi o'quvchilarga ekologiyaga oid bilimni berishda noan'anaviy usullardan foydalaniishi zarur. Bunday noan'anaviy usullar atrof-muhitda ruy berayotgan voqeya-hodisalarni yaxshiroq mushohada qilishga undaydi. Ayniqsa, amaliyot bilan uzviy bog'langan mavzular asosida tashkil qilingan konferentsiya darslari o'quvchilarning ekologik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularning o'rganayotgan muammoli masalalarning mohiyatini kengroq tasavvur qilishlariga yordam beradi.

Quyida "Atrofimizdagi olam" fanida o'quvchilarni tabiatni e'zozlashga o'rgatish maqsadida o'tkaziladigan bir soatlik dars namunasini keltiramiz.

Mavzu: Bahorda o'simliklar hayoti

Dars usuli: Interfaol usullardan foydalanish.

Dars jihozi: "Atrofimizdagi olam" dasrligi, bahor fasliga oid rasmlar, test savollari, tarqatma materiallar, proektor, animatsion harakat, kompyuter, bahor vals musiqasi.

Dars maqsadi: O`quvchilarni erta bahorda birinchi bo`lib gullaydigan o`simliklar va ularning hayot sharoitlari bilan tanishtirish.

a) Ta'limiy :Bahorda gullaydigan o`simliklar bilan tanishtirish.

b) Tarbiyaviy: O`simliklarni asrab-avaylash, ko`paytirish, e`zozlashga o`rgatish, jonli tabiatdan zavq olish hissini tarkib toptirish.

v) Rivojlantiruvchi: O`simliklarni asrab-avaylash, e`zozlash tushunchalarini shakllantirish.

Darsning borishi. Bahor fasli haqida suhbat o`tkazish bilan boshlanadi va o`quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Nima uchun bahorda kun uzayadi?

2. 21 martda kun va tunning uzunligi qanday bo`ladi? Bu kun nima deb ataladi?

3. Bahor kelishi bilan nima uchun tabiat uyg`ona boshlaydi?

4. Bahor faslining boshlarida ob-havo qanday bo`ladi?

5. Momaqaldiroq vaqtda nimalar bo`lishini ko`rish mumkin?

O`quvchilarning «kuzatishlar kundaligi»dagi yozuvlari tekshirib ko`riladi, ularning tevarak-atrofdagi bahor belgilari haqidagi fikr-mulohazalari tinglanadi.









Bahorda quyosh tobora baland ko`tarilib, havo, yer isishi natijasida o`simliklar uyg`onadi, tez-tez yomg`ir yog`adi, yer nam bo`ladi. Bu nam havo sharoitida cho`l hamda dashtu dalalarni o`t-o`lanlar, ariq va qir-adir bo`ylarini maysalar qoplab olishi natijasida bahor nafasi jo`sh ura boshlaydi.

O`quvchilarga tabiatdagi o`simliklarni payhon qilmaslik, jonli tabiatga ozor yetkazmaslik, ularni himoya qilish, e`zozlash lozimligi ta`kidlanadi. O`simliklar inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishini, ular karbonat angidridni yutib, inson uchun zarur bo`lgan kislorod chiqarishi o`quvchilar ongiga singdiriladi.

Musiqiy daqiqa: Bahor valysi musiqasi eshittiriladi.


O`qituvchi bahorda gullaydigan bir necha o`simlikning nomini aytadi hamda o`quvchilarga o`sha o`simliklarning organlarini rasm orqali (gulini, poyasini, bargini, tugunagini, ildizpoyasini, piyozboshini va boshqa organlarini) ko`rsatadi.

Dala va bog`larda, o`tloqlarda zubtutum, qoqio`t, shuvoq, ajriq, sachratqi, ayiqtovon, suvzamchi, ariq bo`ylarida yalpiz kabi o`simliklar o`sadi.

			
Yalpiz	Zubtutum	Qoqio`t	Shuvoq
			
Ajriq	Sachratqi	Ayiqtovon	Suvzamchi

Bu o`simliklarning ayrimlari dorivor o`simliklar hisoblanadi. Masalan, zubtutumning barglari odamning yara, kuygan yoki ari chaqqan joyiga qo`yib davolanadi. Barglaridan shamollash, oshqozon va ichak kasalliklarini davolashda ham foydalaniladi.

qoqio`t ham dorivor o`simlik hisoblanadi. Gullarini ko`tarib turgan poyasi ichida sut kabi oq sharbati bo`ladi. Sharbatidan dori tayyorlanadi. Qoqio`tning barglari ovqatga solinadi.



So`ngra gerbariyalar va tirik o`simliklar bilan bog`liq amaliy ish olib boriladi. O`qituvchi yuqorida aytilgan o`simliklar nomini doskaga yozib, o`quvchilarga

gerbariy qilingan o`simlik namunalari va jonli o`simliklarni diqqat bilan ko`zdan kechirishni taklif qiladi. O`quvchilar boychechak, lola, lolaqizg`aldoq, binafsha o`simliklarini ko`rib chiqib, ularning organlarini topishadi.

O`quvchilar o`simliklarning nomini ish daftarlariga yozib oladilar, «kuzatishlar kundaligi»ga o`simliklarning qaysi biri gullay boshlaganini qayd qiladi.

Test savollari yordamida o`quvchilar bilimi aniqlanadi.

1. 21 mart kuni qaysi bahor bayrami nishonlanadi?

a) Qushlar va gullar bayrami.

b) Navro`z.

g) Qovun sayli.

d) Yangi yil.

2. Bahor kelganidan darak beruvchi o`simliklar qaysilar?

a) O`rik, nok.

b) Boychechak, lolaqizg`aqldoq.

g) No`xat, loviya.

d) G`o`za, kartoshka.

3. Bahor fasli qaysi oydan boshlanadi?

a) Yanvar.

b) Mart.

g) Aprel.

d) May.

Uyga vazifa. Darslikdagi «Bahorda dastlab gullaydigan o`simliklar» mavzusidagi boychechak, lolaqizg`aldoq lola va binafsha rasmlarni yaxshilab ko`zdan kechirish, mavzuga oid savol va topshiriqlarga javob topish.

O`qituvchi sinf va uy sharoitida tajriba o`tkazishni tushuntiradi: madaniy o`simliklar (g`o`za, no`xat, loviya singari o`simliklar) dan birining urug`lari ivitib qo`yiladi. Buning uchun tarelka yuziga bir qavat paxta yoki latta yoyib, uning

ustiga urug`lar terib qo`yiladi. Paxta yoki latta suv bilan namlanadi, urug`larning ustiga ho`l latta yopib qo`yiladi.

O`quvchilar urug`larda qanday o`zgarishlar yuz berishini hafta davomida diqqat bilan kuzatishi va paxta yoki lattaning qurib qolishiga yo`l qo`ymasligi nish otib ko`kara boshlagan urug`larda yuz bergan o`zgarishlarni har kuni «kuzatishlar kundaligi»ga yozib borishi lozim.

№	Loviya urug`inig namligini kuzatish	Urug`da qanday o`zgarish yuz bermoqda
1-kun		
2-kun		
3-kun		
4-kun		
5-kun		
6-kun		